

INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND MODERN EDUCATIONAL PLATFORMS IN THE DEVELOPMENT OF FOREIGN LANGUAGES

Student of Karakalpak State University named after Berdakh
Atabayeva Munavvara Odamboy kizi
atabayevamunavvara057@gmail.com

CHET TILLARINING RIVOJLANISHIDA SUN'IY INTELLEKT VA ZAMONAVIY TA'LIM PLATFORMALARINING INTEGRATSIYALASHUVI

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti talabasi
Atabayeva Munavvara Odamboy qizi
atabayevamunavvara057@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kundagi chet tillarni jumladan, ingliz tilini rivojlanishi va samarali o'rgatilishi haqida to'xtalib o'tiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt va zamonaviy ta'lim platformalarni rivojlanishida insonning hayoti mobaynida tutgan asosiy roli. Umuman olganda, xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt va zamonaviy platformalarni ta'lim sohasida qo'llanilishi haqida qisqacha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, zamonaviy ta'lim platforma, chet tillarini samarali o'rganish

Annotation: sun'iy intellekt, zamonaviy platforma, chet tillarini samarali o'rganish This article analyzes the development of foreign languages, including, English, in the modern era and their effective learning. It also examines the key role of artificial intelligence and modern educational platforms in human life. In general, the article provides a brief analysis of the use of artificial intelligence and modern platforms in the field of education, particularly in learning foreign languages.

Keywords: artificial intelligence, modern platform, effective foreign language learning

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития и эффективного преподавания иностранных языков, в частности английского языка, в современных условиях. Также анализируется ключевая роль человека в контексте стремительного развития искусственного интеллекта и современных образовательных платформ. В целом, проводится краткий анализ применения ИИ и инновационных технологий в процессе изучения иностранных языков.

Ключевые слова: искусственный интеллект, современная образовательная платформа, эффективное изучение иностранных языков.

Chet tillarining rivojlanib borishida sun'iy intellektning innovatsion texnologiyalari bilan zamonaviy ta'lim platformalar hayot tarzimizga yanada chuqur ta'sir berib kelmoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki sun'iy intellekt inson hayotiga juda tez kirib keldi va jamiyatdagi har bir soha vakillariga o'z ta'sirini o'tkazibgina qolmay, balki zamonaviy ta'lim platformalarida ham aql bovar qilmaydigan o'zgarishlar berishda sabachi bo'lmoqda.

Sun'iy intellekt (AI, - inglizcha artificial intelligence,) inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiyalar sohasining jamlanmasidir. Sun'iy intellektning paydo bo'lishiga to'xtaladigan bo'lsak, birinchi sun'iy intellekt sohasida olib borilgan tadqiqot muallifi Alan Turing.

U 1956- yili sun'iy intellektga mustaqil fan sohasi sifatida asos solgan. 2020-yillar boshlarida mazkur soha rivojlanib, ko'plab sohalar doirasida anchagina yutuqlarga erishdi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim platformalarining barcha turlariga foyda ish ko'rsatkichining 90 % dan oshdi.

Zamonaviy platformalar – bu ta'lim, biznes, muloqot hamda axborot almashinuvlarini o'z ichiga oluvchi muloqot vositasi. Ta'lim platformalari (LMS) o'qituvchilar va baholash tizimini



taqdim etadi (masalan, Hemis, Google Classroom). Umuman olganda, fanni o'qitishga doir ta'lim platformalari zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismi hisoblanadi va bu platformalar o'qish jarayonining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda bunga o'xshash elektron ta'lim platformalari chet tillarini o'rganishda asosiy o'rin egallamoqda.

Chet tillarini o'rganishda xalqaro platformalar tahlili:

Duolingo – chat tillarini o'rganish uchun innovatsion vosita bo'lib, foydalanuvchilarga turli tillarni o'rganishda yordam beradi. u o'yin (game) uslubida o'qitadi: mashqlar, qisqa, soda va qiziqarli bo'ladi. Platforma 40 dan ortiq tilni o'rganishga imkon yaratib beradi va foydalanuvchilar soni 500 milliondan oshdi.

Ibrat Academy – 2022-yilda ishga tushirilgan ibrat farzandlari tashabbusi doirasida yaratilgan va O'zbekistonda yaratilgan zamonaviy onlayn platform bo'lib, asosan chet tillarini o'rganish uchun mo'ljallangan hamda videodarslar, test va mashqlarni mustaqil ravishda o'rganib borasiz. Shuningdek, yoshlar uchun bepul yoki arzon narxlarda ta'lim berishga qaratilgan.

Hemis – ochiq manbali platforma bo'lib, ta'lim muassasalariga o'quv jarayonlarni boshqarish imkonini beradi va talabalarining ma'lumotlarini saqlashda, baholarini kiritishda, dars jadvalarini boshqarib borishda ishlatiladigan raqamli platform hisoblanadi. O'zbekistonning bir qancha universitetlarida ham ushbu platformalardan foydalanilmoqda.

Shu o'rinda sun'iy intellekt AI ham ta'lim yo'nalishi bosqichidagi modelni butunlay o'zgartirdi. Birinchidan, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish talaba va o'quvchilar o'quv jarayonini o'ziga to'g'ri moslashtirish mumkin. Ikkinchidan, AI raqamlashtirilgan baholash tizimi o'qituvchiga o'qish kursini to'g'ri moslab olish imkonini beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslardan farqli o'laroq, sun'iy intellekt o'quv jarayonini yanada interaktiv va samarali bo'lishini ta'minlaydi, ammo shu paytgacha mavjud bo'lgan zamonaviy platformalarni va botlarni "aqlli" deb atash qiyin. Ularning ko'pchiligi tor doiradagi vazifalarni bajarishga qodir. Shuning uchun ba'zi ilovalarda AI haqiqiy suhbatdoshni almashtirishga urinmaydi. Ba'zi ilovalarda esa AI faqat ish faoliyatimiz haqida tavsiyalar berish uchun ishlatiladi. Shuningdek, o'z navbatida sun'iy intellekt foydalanuvchining til darajasi va sevimli mashg'ulotlariga asoslanadi.

Shu bilan bir qatorda, zamonaviy ta'lim platformalar ham ta'lim sohasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatni to'g'ri yo'lga qo'yishi va ta'lim resurslardan qayta to'g'ri foydalanishni tubdan o'zgartirmoqda. Bunga o'xshash raqamli texnologiyalar chet tillarini o'rganishda, o'quvchilar ko'plab mustaqil o'qishga o'rganadi va til o'rganishda o'ziga mos zarur ko'nikmalarni shakllantiradi va xorijiy tillarni o'zlarini rivojlantirishga mas'ul bo'lishadi. Asosan bu zamonaviy ta'lim platformalari orqali o'rganishga bo'lgan qiziqish ortadi va o'zlashtirish darajasi yanada yaxshilanadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda sun'iy intellekt va zamonaviy ta'lim platformalarini o'rni juda katta va shu bilan birga o'sishda davom etmoqda. Turli texnologiyalarga o'rgangan va odatlangan yosh avlod vakillari uchun yaxshi asqotadi. Shuningdek, 2021-yilning 17-fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim platformalarida IT mutaxassislarni tayyorlash jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik metodlarni va chet tillarining rivojlanishida tutgan o'rni ilmiy asosda tasdiqladi. Ayniqsa, IT ta'limida zamonaviy platformalar bilan birga innovatsion pedagogik metodlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa IT ta'lim sohasida xorijiy tillarni yanada chuqur va qamrovli ilmiy natijalarga erishish imkonini beradi

